O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 20-iyun | 277-12-0-Q/25 | Xorazm viloyati hokimligi

Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 23-yanvardagi “Viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash haqida”gi 31-12-0-Q/25-sonli qaroriga o‘zgartirish vaqo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Viloyatdagi tadbirkorlik muhitini yaxshilash, xorijiy va mahalliy turistlar oqimini oshirish, hunarmand va tadbirkorlar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida Xiva shahar hokimligining 2025-yil 29-maydagi 5-197-sonli xatini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 21^1-moddalariga asosan

Qaror qilaman:

1. Xiva shahar hokimligining 2025-yil 29-maydagi 5-197-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 23-yanvardagi “Viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash haqida”gi 31-12-0-Q/25-sonli qaroriga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.
3. Mazkur qaror “Xorazm haqiqati” gazetasida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.
4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.
5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Achilov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **J.Raximov**

Xorazm viloyati hokimining
2025-yil 20-iyundagi
277-12-0-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 23-yanvardagi “Viloyatdagi davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 2025-yilda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash haqida”gi 31-12-0-Q/25-sonli qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Qarorning 1-bandi:

oltinchi xatboshisidagi “6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.” so‘zlari “6-ilovaga;” so‘zlari bilan almashtirilsin.

qarorning 1-bandiga “Moddiy-madaniy meros obyektlari bo‘lgan bino va inshootlarda mehmonxona va umumiy ovqatlanish shoxobchalarini tashkil qilishda ijara to‘lovi (ijara to‘lovining eng kam miqdori)ni hisoblash tartibi va qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.” so‘zlaridan iborat yettinchi xatboshi kiritilsin.

2. Qarorga quyidagi talqindagi 7-ilova kiritilsin:

“Xorazm viloyati hokimining
2025-yil 23-yanvardagi
31-12-0-Q/25-son qaroriga
7-ilova

Moddiy-madaniy meros obyektlari bo‘lgan bino va inshootlarda mehmonxona va umumiy ovqatlanish shoxobchalarini tashkil qilishda ijara to‘lovi (ijara to‘lovining eng kam miqdori)ni hisoblash tartibi va qo‘llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar

Ijara to‘lovining eng kam miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Ts = Es * Kz * (Kk + Kx + Ko)$$

bunda:

Ts – bir yilga 1 kv. metr uchun ijara to‘lovining eng kam miqdori;

Es – 1-ilovaga muvofiq ijaraga olingan obyektning faoliyat turiga ko‘ra bir yil uchun 1 kv. metr maydonning hisoblangan eng kam stavkasi.

Hududiy zonalar koeffitsiyenti (Kz) 2-ilovada keltirilgan.

Binoning qurilishiga ko‘ra qo‘llaniladigan koeffitsiyent turi (Kk):

alohida turgan bino – 1,5 koeffitsiyent;
bino ichidagi alohida xona – 1,1 koeffitsiyent;
binoning ustki qismi, cherdak, mansard – 0,8 koeffitsiyent;
binoga taqab qurilgan bino hamda bostirma – 0,8 koeffitsiyent;
yarim yerto‘la, yerto‘la – 0,7 koeffitsiyent;
betonlashtirilgan (asfaltlangan, bruschatka) inshootlar – 0,6 koeffitsiyent;

Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh):

yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lganda – 0,5 koeffitsiyent.

Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko):

ijaraga berilgan obyekt asosiy qatnov yo‘llari bo‘yida, serqatnov joylarda joylashgan bo‘lsa – 0,6 koeffitsiyent;

ijaraga berilgan obyekt ikkinchi darajali qatnov yo‘llari bo‘yida joylashgan bo‘lsa – 0,5 koeffitsiyent.”